

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI BILAN
ESTONIYA RESPUBLIKASI HUKUMATI O'RTASIDA
RUXSATSIZ YASHAYOTGAN SHAXSLARNI
READMISSIYA QILISH TO'G'RIDA
BITIM**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Estoniya Respublikasi Hukumati, keying o'rinlarda «Tomonlar» deb ataluvchilar,

noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish uchun o'zlarining hamkorligini mustahkamlashga qaror qilib,

mazkur Bitim orqali va o'zarolik asosida, O'zbekiston yoki Estoniya hududlariga kirish, bo'lish yoki bo'lib turish shartlarni bajarmagan yoki bunday shartga to'g'ri kelmaydigan shaxslarni aniqlash va xavfsiz va tartibli ravishda qaytarish bo'yicha tezkor va samarali protseduralarni o'rnatish istagini bildirib,

uchinchi davlatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning tranzitiga hamkorlik ruhida ko'maklashish maqsadida,

ixtiyoriy ravishda qaytib kelishlarni rag'batlantirishga va o'zlarining milliy qonunchiligi doirasida manfaatdor shaxslarning reintegratsiya qilinishiga ko'maklashishga tayyor ekanliklarini tasdiqlab,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

**1-modda
Ta'riflar**

Mazkur Bitim maqsadlari uchun:

(a) **“Readmissiya”** – so'rayotgan Davlatning markaziy vakolatli organi tomonidan ushbu Bitim qoidalariga muvofiq qaytarilishi va so'ralayotgan Davlatning markaziy vakolatli organi tomonidan so'ralayotgan Davlatning so'rayotgan Davlat hududiga noqonuniy kirgan, bo'lgan va bo'lib turgan fuqarolari, uchinchi davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning qabul qilinishi;

(b) **“So'ralayotgan Davlat fuqarolari”** – ularning milliy qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston yoki Estoniya fuqaroligiga ega bo'lgan har qanday shaxsni anglatadi;

(c) **“Uchinchi davlat fuqarosi”** – O'zbekiston yoki Estoniya fuqaroligi bo'lmagan har qanday fuqaroni anglatadi;

(d) **“Fuqaroligi bo'lmagan shaxs”** – hech qanday mamlakat fuqaroligiga ega bo'lmagan har qanday shaxsni anglatadi;

(e) **“Yashash uchun ruxsatnoma”** – O‘zbekiston yoki Estoniya tomonidan biron bir shaxsga uning hududida yashash huquqini beradigan har qanday turdagi ruxsatnoma tushuniladi. Bunda boshpana yoki yashash uchun ruxsat olish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish munosabati bilan hududda vaqtincha turish ruxsatlarini o‘z ichiga olmaydi;

(f) **“Viza”** – Tomonlarning vakolatli organlari tomonidan berilgan, uning hududiga kirish, uning hududidan chiqish, uning hududida bo‘lish yoki uning hududi orqali tranzit o‘tish uchun beriladigan ruxsatnoma. Bunga aeroport tranzit vizasi kirmaydi;

(g) **“So‘rayotgan Davlat”** – mazkur Bitimning 5-moddaga muvofiq readmissiya qilish bo‘yicha ariza bergan yoki 12-moddasiga muvofiq tranzit to‘g‘risidagi arizani bergan davlatni anglatadi;

(h) **“So‘ralayotgan Davlat”** – mazkur Bitimning 5-moddaga muvofiq readmissiya qilish bo‘yicha ariza yoki 12-moddasiga muvofiq tranzit to‘g‘risidagi ariza bilan murojat qilingan davlatni anglatadi;

(i) **“Markaziy vakolatli organ”** – mazkur Bitimning qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalar yuklatilgan Tomonlar davlatlarining vakolatli organi;

(j) **“Vakolatli organ”** – mazkur Bitimning qoidalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi Tomonlar davlatlarining organlari;

(k) **“Tranzit”** – so‘rayotgan Davlatdan boshqa mamlakatga safar paytida uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning so‘ralayotgan Davlat hududi orqali oxirgi manzilga o‘tishini anglatadi.

I-BO‘LIM

TOMONLARNING READMISSIYA BO‘YICHA VAZIFALARI

2-modda

O‘z fuqarolarini readmissiya qilish

1. So‘ralayotgan Davlat, so‘rayotgan Davlat arizasiga binoan va ushbu Bitimda ko‘zda tutilganidan tashqari boshqa rasmiyatchiliklarsiz, so‘rayotgan Davlat hududiga kirish, bo‘lish yoki bo‘lib turish uchun qonuniy shartlarni bajarmaydigan yoki bundan keyin mos kelmaydigan barcha shaxslarni, agar So‘ralayotgan Tomon fuqarolari ekanligi isbotlangan yoki taqdim etilgan *prima facie* dalillari asosida buni amalda aniqlash mumkin bo‘lsa qayta qabul qiladi.

2. So‘ralayotgan Davlat so‘rayotgan Davlat hududiga kirgandan so‘ng, so‘ralayotgan Davlat fuqaroligidan mahrum qilingan yoki fuqarolikdan chiqqan shaxslarni qabul qilib oladi agar bunday shaxslarga so‘rayotgan Davlat vakolatli organi tomonidan naturilizatsiya (fuqarolikka qabul qilish) kafolatmagan bo‘lsa.

3. So'ralayotgan Davlat readmissiya to'g'risidagi arizaga yozma ravishda ijobiy javob berganidan so'ng, so'ralayotgan Davlatning vakolatli diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi, readmissiya qilinishi kerak bo'lgan shaxsni xohish-irodasidan qat'iy nazar, darhol va 10 (o'n) ish kundan kechiktirmay, 90 kunlik amal qilish muddati bilan readmissiya qilinishi kerak bo'lgan shaxsning qaytishi uchun zarur bo'lgan yo'l hujjatini beradi. Agar So'ralayotgan Davlat tarafidan 10 (o'n) ish kuni ichida yo'l hujjati berilmagan bo'lsa, u noqonuniy bo'lgan uchinchi davlat fuqarolarini qaytarish uchun Yevropa yo'l hujjatidan foydalanishni qabul qilgan deb hisoblanadi.

4. Agar huquqiy yoki amaliy sabablarga ko'ra tegishli shaxs dastlab berilgan yo'l hujjatining amal qilish muddati davomida yo'lga chiqqa olmasa, so'ralayotgan Davlatning vakolatli diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi 10 (o'n) ish kuni ichida yo'l hujjatining amal qilish muddatini uzaytiradi yoki zarur hollarda, xuddi shu muddatga amal qilish muddati bilan yangi yo'l hujjatini beradi. Agar So'ralayotgan Davlat tarafidan 10 (o'n) ish kuni ichida yangi yo'l hujjatini berilmagan yoki uning amal qilish muddatini uzaytirilmagan bo'lsa, u noqonuniy bo'lgan uchinchi davlat fuqarolarini qaytarish uchun Yevropa yo'l hujjatidan foydalanishni qabul qilgan deb hisoblanadi.

3-modda

Uchinchi davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni readmissiya qilish

1. So'ralayotgan Davlat, so'rayotgan Davlat arizasiga binoan va ushbu Bitimda ko'zda tutilganidan tashqari boshqa rasmiyatchiliklarsiz, so'rayotgan Davlat hududiga kirish, bo'lish yoki bo'lib turish uchun qonuniy shartlarni bajarmaydigan yoki bundan keyin mos kelmaydigan barcha uchinchi davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni agar bu isbotlangan yoki taqdim etilgan *prima facie* dalillari asosida buni amalda aniqlash mumkin bo'lsa, qayta qabul qiladi basharti ushbu shaxslar:

(a) readmissiya arizasini topshirgan vaqtda, so'ralayotgan Davlat tarafidan berilgan amaldagi viza yoki yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lsa; yoki

(b) so'ralayotgan Davlat hududidan to'g'ridan-to'g'ri havo orqali so'rayotgan Davlat hududiga noqonuniy kirib kelgan bo'lsa; yoki

(c) 2-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan shaxslarning boshqa fuqarolikka ega voyaga yetmagan farzandlari yoki turmush o'rtoqlari bo'lsa;

2. Ushbu moddaning 1-bandidagi readmissiya majburiyati tadbiq etilmaydi, agar:

(a) uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs faqatgina xalqaro havo yo'li tranzitida so'ralayotgan Davlat aeroporti orqali bo'lgan bo'lsa; yoki

(b) so'rayotgan Davlat uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga uning hududiga kirishdan oldin yoki undan keyin viza yoki yashash ruxsatnomasini bergan bo'lsa, basharti:

- ushbu shaxs uzoqroq amal qilish muddatiga ega so'ralayotgan Davlat tarafidan berilgan viza yoki yashash ruxsatnomasiga ega bo'lmasa; yoki

- so'rayotgan Davlat tarafidan berilgan viza yoki yashash ruxsatnomasi qalbakilashtirilgan yoki soxta hujjatlar orqali yoxud yoki soxta bayonot berib olingan bo'lsama; yoki

- ushbu shaxs vizaga bog'liq bo'lgan biron bir shartga rioya qilmasa.

3. So'ralayotgan Davlat readmissiya to'g'risidagi arizaga ijobiy javob berganidan so'ng, u darhol va 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay, readmissiyasi qabul qilingan shaxsga qaytarish maqsadlari uchun yo'l hujjatini beradi. Agar So'ralayotgan Davlat tarafidan 3 ish kuni ichida yo'l hujjati berilmagan bo'lsa, u noqonuniy bo'lgan uchinchi davlat fuqarolarini qaytarish uchun Yevropa yo'l hujjatidan foydalanishni qabul qilgan deb hisoblanadi.

II BO'LIM

READMISSIYA TARTIBI

4-modda

Tamoyillari

1. 2-bandni hisobga olgan holda, 2 va 3-moddalarda ko'rsatilgan majburiyatlardan biri asosida readmissiya qilish kerak bo'lgan shaxsni har qanday topshirish so'ralayotgan Davlatning markaziy vakolatli organiga readmissiya to'g'risida ariza yuborishni talab qiladi.

2. Agar readmissiya qilish kerak bo'lgan shaxsning davlat chegarasini kesib o'tishiga imkon beradigan amaldagi yo'l hujjati mavjud bo'lsa, readmissiya to'g'risidagi ariza talab qilinmaydi.

5-modda

Readmissiya arizasi

1. Har qanday readmissiya to'g'risidagi ariza quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

(a) imkon boricha, readmissiya qilinishi kerak bo'lgan shaxsning ma'lumotlari (masalan, ismlari, familiyalari, tug'ilgan yili va joyi, oxirgi yashash joyi);

(b) o'z fuqarolariga nisbatan, fuqarolikni isbotlovchi yoki *prima facie* dalillar taqdim etiladigan vositalarni ko'rsatish;

(c) uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan, uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan readmissiya qilish shartlari, shuningdek, noqonuniy kirish, bo'lish va bo'lib turish shartlarini isbotlash yoki *prima facie* dalillar taqdim etiladigan vositalarni ko'rsatish;

(d) readmissiya qilinishi kerak bo'lgan shaxsning fotosurati.

2. Imkon boricha, Readmissiya to'g'risidagi ariza, shuningdek, quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

(a) topshiriladigan shaxs yordamga yoki parvarishga muhtoj bo'lishi mumkinligi to'g'risida bayonot, agar mazkur shaxs ushbu bayonotga aniq rozi bo'lsa;

(b) har qanday boshqa himoya, xavfsizlik choralari yoki shaxsning sog'lig'iga oid ma'lumotlar, agar ushbu shaxsni topshirish alohida ishda zarur bo'lilishi mumkin bo'lsa.

3. Readmissiya to'g'risidagi arizalari uchun foydalaniladigan umumiy shakl ushbu Bitimga 5-ilova sifatida keltiriladi.

4. Readmissiya to'g'risidagi ariza elektron vositalarni hisobga olgan holda har qanday aloqa vositalari bilan topshirilishi mumkin.

5. Bitimni amalga oshirayotgan vakolatli organlarning tafsilotlari Bitim imzolangan paytda almashiladi.

6-modda

Fuqarolikka oid dalil vositalari

1. 2-moddaning 1-bandiga muvofiq fuqarolikni isbotlash, xususan, ushbu Bitimga 1-ilovada sanab o'tilgan hujjatlar, shu jumladan amal qilish muddati olti (6) oygacha bo'lgan hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Agar bunday hujjatlar taqdim etilsa, Tomonlar qo'shimcha tekshiruv o'tkazish talab etilmasdan turib, fuqarolikni o'zaro tan oladilar. Fuqarolikni isbotlash soxta hujjatlar amalga oshirilishi mumkin emas.

2. 2-moddaning 1-bandiga muvofiq fuqarolikka oid *prima facie* dalillar, xususan, ularning amal qilish muddati o'tgan bo'lsa ham, ushbu Bitimga 2-ilovada sanab o'tilgan hujjatlar orqali taqdim qilinishi mumkin. Agar bunday hujjatlar taqdim etilsa, Tomonlar fuqarolik o'rnatilgan deb hisoblaydilar, basharti ular boshqacha tarzda isbotlay olmasalar. Fuqarolik to'g'risidagi *prima facie* dalillar soxta hujjatlar orqali taqdim etilishi mumkin emas.

3. Agar Bitimning 1 yoki 2-ilovalarida ko'rsatilgan hujjatlarning hech biri taqdim etilmasa, so'ralayotgan Davlat vakolatli diplomatik va konsullik vakolatxonalari so'rayotgan Davlat markaziy vakolatli organi so'roviga binoan ushbu shaxs bilan uning fuqaroligini aniqlash maqsadida readmissiya qilish to'g'risida ariza olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida asossiz kechiktirmasdan readmissiya qilinadigan shaxs bilan suhbat o'tkazish uchun tadbirlar o'tkazadilar.

4. Zarur hollarda, readmissiya qilinadigan shaxslarning fuqaroligi to'g'risida ma'lumot olish uchun ekspertlar tayinlanishi mumkin.

7-modda

Uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga oid dalil vositalari

1. Uchinchi davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning 3-moddaning 1-bandiga muvofiq qayd etilgan readmissiya shartlarining isbotlanishi, xususan ushbu Bitimga 3-ilovada keltirilgan dalillar orqali amalga oshiriladi; soxta hujjatlar bilan amalga oshirilishi mumkin emas. Har qanday bunday dalillar Tomonlar tarafidan qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazilishini ta'lab etilmay, o'zaro tan olinadi.

2. Uchinchi davlat fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning readmissiya shartlari to'g'risida 3-moddaning 1-bandiga muvofiq qayd etilgan readmissiya shartlarining *prima facie* dalillari, xususan Bitimning 4-ilovasida keltirilgan dalillar orqali taqdim etiladi; soxta hujjatlar bilan taqdim etish mumkin emas. *Prima facie* dalillari taqdim etilgan taqdirda, Tomonlar shartlar o'rnatilgan deb hisoblaydilar, basharti ular boshqacha tarzda isbotlay olmasalar.

8-modda

Vaqt cheklavlari

1. Readmissiya to'g'risidagi ariza, so'ralayotgan Davlat markaziy vakolatli organiga so'rayotgan Davlat markaziy vakolatli organi uchinchil davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning kirish, bo'lish yoki bo'lib turish uchun mavjud shartlarni bajarmasligi yoki boshqa bajara olmasligi to'g'risida ma'lumot olganidan keyin ko'pi bilan bir (1) yil ichida berilishi kerak. Agar o'z vaqtida topshirish uchun huquqiy yoki amaliy to'siqlar mavjud bo'lsa, so'rayotgan Davlatdan so'roviga asosan, muddat faqat to'siqlar mavjud bo'lishni tugatgunga qadar uzaytiriladi.

2. Readmissiya to'g'risidagi arizaga barcha holatlarda 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida yozma ravishda javob berilishi kerak. Ushbu muddat readmissiya so'rovi olingan sanadan e'tiboran boshlanadi. Agar ushbu

muddat ichida hech qanday javob bo'lmasa, topshirish qabul qilingan deb hisoblanadi.

3. Oxirgi rad etish sabablari yozma ravishda taqdim etilishi kerak.

4. Rozilik berilganidan keyin yoki zarur hollarda, 2-bandda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan, tegishli shaxs uch (3) oy ichida topshiriladi. Bu muddat so'rayotgan Davlatning so'rovi asosida, huquqiy yoki amaliy to'siqlar ko'rib chiqish uchun belgilangan vaqtga uzaytirilishi mumkin.

9-modda

Topshirish usullari va transport turlari

1. Shaxsni qaytarishdan oldin, Tomonlarning tegishli vakolatli organlari oldindan va yozma ravishda topshirish sanasini, kirish joyini, ehtimoliy kuzatuvchilar va topshirishga aloqador boshqa ma'lumotlarni kelishib oladilar. Topshirish to'g'risidagi ariza qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida qabul qilinishi yoki rad etilishi lozim.

2. Transport havo yoki quruqlik orqali amalga oshirilishi mumkin. Havo orqali qaytish Tomonlarning milliy tashuvchilaridan foydalanish bilan cheklanmaydi va rejali yoki charter reyslaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

10-modda

Readmissiyada xatolik

1. So'ralayotgan Davlat, so'rayotgan Davlat tomonidan readmissiya qilingan har qanday shaxsni, agar u tegishli topshirilgandan keyin 6 (olti) oy mobaynida ushbu Bitimning 2 va 3-moddalarida ko'rsatilgan talablar topshirish vaqtida bajarilmaganligi aniqlansa, uni qaytarib oladi.

2. Bunday hollarda ushbu Bitimning protsessual qoidalariga *mutatis mutandis* asosida qo'llaniladi va qaytarib olinishi kerak bo'lgan shaxsning identifikatsiyasi va fuqaroligiga tegishli barcha ma'lumotlar taqdim etiladi.

III BO'LIM

TRANZIT FAOLIYATLARI

11-modda

Tamoyillar

1. So'ralayotgan Davlat agar so'ralayotgan Davlat so'rov yuborsa, uchinchi davlat fuqarolariga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning tranzit o'tishiga va boshqa mumkin bo'lgan tranzit davlatlarda keyingi safarga

ruxsat beradi hamda oxirgi manzil davlat tomonidan readmissiyasi ta'minlanadi.

2. Tranzit Tomonlar tarafidan rad etilishi mumkin:

(a) agar uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs belgilangan oxirgi manzilda yoki boshqa tranzit holatida irqiga, diniga, fuqaroligiga, muayyan ijtimoiy guruh a'zoligi yoki siyosiy qarashlari sababli qiynoqqa solinishi yoki g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazoga, o'lim jazosiga yoki ta'qib qilinish real xavfiga duchor bo'lsa; yoki

(b) agar uchinchi davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs so'ralayotgan Davlatda yoki boshqa tranzit davlatida jinoiy javobgarlikka tortilsa; yoki

(c) sog'liqni saqlash, ichki xavfsizlik, jamoat tartibi yoki so'ralayotgan Davlatning boshqa milliy manfaatlariga asosida.

3. Tomonlar, agar ushbu moddaning 2-bandida ko'rsatilgan holatlar keyinchalik yuzaga kelsa yoki aniqlansa va tranzit faoliyatiga to'sqinlik qilsa yoki tranzitning mumkin bo'lgan mamlakatlarida keyingi sayohat yoki oxirgi manzil davlat tomonidan qayta qabul qilinishi kafolatlanmagan bo'lsa, berilgan har qanday ruxsatnomani bekor qilishlari mumkin. Bunday holda, so'rayotgan Davlat uchinchi davlat fuqarosini yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni, zaruratga qarab va kechiktirmasdan qaytarib oladi.

12-modda

Tranzit tartibi

1. Tranzit faoliyatlarini o'tkazish uchun ariza so'ralayotgan Davlatning vakolatli organiga tranzit boshlanishidan 5 (besh) kalendar kun oldin elektron manzil orqali yozma shaklda topshirilishi kerak va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

(a) tranzit turi (havo yoki quruqlik orqali), tranzit mumkin bo'lgan boshqa davlatlar va mo'ljallangan oxirgi manzil;

(b) imkon boricha, tegishli shaxsning ma'lumotlari (masalan, ismi, familiyasi, qizlik familiyasi, ishlatilgan/tanilgan boshqa ismlar, tug'ilgan sana, jinsi va iloji bo'lsa - tug'ilgan joyi, fuqaroligi, tili, yo'l hujjatining turi va raqami);

(c) ko'zda tutilgan kirish joyi, tranzit vaqti va agar mavjud bo'lsa, ular bilan kuzatuvchi tafsilotlari;

(d) so'rayotgan Davlat ko'ra, 11-moddaning 1-bandiga muvofiq shartlar bajarilganligi va 11-moddaning 2-bandiga binoan rad etish uchun hech qanday sabablar ma'lum emasligi to'g'risida bayonot.

Tranzit arizalar uchun foydalaniladigan umumiy shakl Bitimga 6-iloza sifatida keltirilgan.

2. So'ralayotgan Davlat uch (3) kalendar kuni ichida va yozma ravishda so'ralayotgan Davlatning vakolatli organiga kirish joyini va qabul qilishning ko'zda tutilgan vaqtini tasdiqlovchi elektron manzil orqali xabar beradi yoki uni qabul qilish qabul qilishni rad etish va bunday rad etish sabablari to'g'risida xabardor qiladi.

3. Agar tranzit faoliyati havo orqali amalga oshirilsa, readmissiya qilinishi kerak bo'lgan shaxs va uni kuzatuvchi so'ralayotgan Davlatning xalqaro majburiyatlari doirasida aeroport tranzit vizasidan ozod qilinadi.

4. So'ralayotgan Davlat vakolatli organlari o'zaro maslahatlashuvlar asosida tranzit faoliyatlarini amalga oshirishda, xususan, tegishli shaxslarning kuzatuvi va shu maqsadda tegishli sharoitlar yaratish orqali yordam ko'rsatadilar.

IV BO'LIM XARAJATLAR

13-modda

Transport va tranzit xarajatlari

Readmissiya qilinishi kerak bo'lgan shaxsdan yoki uchinchi shaxslardan readmissiya bilan bog'liq xarajatlarni vakolatli organlarning qoplash huquqiga daxl qilmagan holda, ushbu Bitimga binoan readmissiya va tranzit faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan barcha transport xarajatlari oxirgi manzil davlati chegarasigacha so'ralayotgan Davlat zimmasiga yuklanadi.

V BO'LIM MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH VA DAXL QILMASLIK QOIDASI

14-modda

Ma'lumotlarni himoya qilish

Muayyan holatda Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va ulardan foydalanish O'zbekiston va Estoniya ichki qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususan, quyidagi tamoyillar qo'llaniladi:

(a) shaxsga doir ma'lumotlar adolatli va qonuniy ravishda ishlov berilishi kerak;

(b) shaxsga doir ma'lumotlar ushbu Bitimni amalga oshirishning aniq, ravshan va qonuniy maqsadi uchun yig'ilishi va xabar beruvchi organ yoki qabul qiluvchi organ tomonidan ushbu maqsadga nomuvofiq tarzda ishlatilishi mumkin emas;

(c) Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va/yoki keyinchalik ishlov berish maqsadlariga nisbatan bir xil, tegishli va ortiqcha bo'lmasligi lozim; xususan, yetkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar faqat quyidagilarga tegishli bo'lishi mumkin:

- topshirilishi kerak bo'lgan shaxsning ma'lumotlari (masalan, ismlar, familiyalar, har qanday avvalgi ismlar, ishlatilgan/tanilgan boshqa ismlar, jinsi, fuqarolik holati, tug'ilgan sanasi va joyi, hozirgi va har qanday avvalgi fuqaroligi),

- pasporti, ID yoki haydovchilik guvohnomasi (raqami, amal qilish muddati, berilgan sanasi, bergan vakolat organi, berish joyi),

- to'xtash joylari va yo'nalishlar,

- topshirilishi kerak bo'lgan shaxsni aniqlash yoki ushbu Bitimga muvofiq readmissiya talablarini o'rganish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

(d) shaxsga doir ma'lumotlar aniq va zarur hollarda, yangilanishi kerak;

(e) Shaxsga doir ma'lumotlar ma'lumotlar subyektlarini identifikatsiyalashga imkon beradigan shaklda ma'lumotlarni yig'ish yoki ularga ishlov berish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ko'p bo'lmagan vaqt davomida saqlanishi kerak;

(f) xabar beruvchi va qabul qiluvchi organ shaxsga doir ma'lumotlarning to'g'ri tuzatilishini, o'chirilishini yoki blokirovka qilinishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi va aynan ishlov berish ushbu moddaning qoidalariga mos kelmasa, xususan ma'lumotlar bir xil, tegishli, aniq emas yoki ishlov berish maqsadiga nisbatan ortiqcha bo'lsa. Bunga boshqa Tomonni har qanday tuzatish, o'chirilish yoki blokirovka qilish to'g'risida xabar qilishni o'z ichiga oladi;

(g) so'rov bo'yicha qabul qiluvchi organ xabar beruvchi organga uzatilgan ma'lumotlardan foydalanish va undan olingan natijalar to'g'risida xabardor qiladi;

(h) shaxsga doir ma'lumotlar faqat vakolatli organlarga berilishi mumkin. Boshqa organlar bilan keyingi aloqalar xabar beruvchi organing oldindan roziligini talab qiladi;

(i) xabar beruvchi va qabul qiluvchi organ shaxsga doir ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish to'g'risida yozma hisobot taqdim etish majburiyatini oladilar.

15-modda

Daxl qilmaslik qoidasi

Mazkur Bitim har bir Tomonning bevosita yoki bilvosita xalqaro huquq yoki konvensiyalardan va xususan, quyidagilardan kelib chiqadigan huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlariga daxl yetkazmaydi:

- 1967-yil 31-yanvardagi Protokol bilan o'zgartirish kiritilgan 1951-yil 28-iyuldagi Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya,
- boshpana olish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish uchun javobgar davlatni belgilaydigan xalqaro konvensiyalar;
- 1950-yil 4-noyabrdagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi;
- 1984-yil 10-dekabrdagi Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashga qarshi Konvensiyasi;
- ekstradisiya va tranzit to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar;
- xorijiy fuqarolarning readmissiyasi to'g'risida konvensiyalar va bitimlar.

VI-BO'LIM

Amalga oshirish

16-modda

Vakolatli organlar

1. Tomonlar ushbu Bitim qoidalarini amalga oshirish quyidagi organlarni tayinlaydilar:

O'zbekiston Respublikasi uchun:

Ichki ishlar vazirligi — Markaziy vakolatli organ;

Davlat xavfsizlik xizmati;

Tashki ishlar vazirligi.

Estoniya Respublikasi uchun:

Politsiya va Chegara qo'shinlari gvardiyasi — Markaziy vakolatli organ;

Ichki ishlar vazirligi;

Tashqi ishlar vazirligi.

17-modda

Hamkorlik va ekspertlar uchrashuvlari

1. Tomonlarning vakolatli organlari ushbu Bitimni qo'llash va sharhlashda bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatadilar.
2. Har bir Tomon ushbu Bitimni amalga oshirishda yuzaga keladigan har qanday savollarni tushuntirish uchun har ikki Tomonlarning ekspertlari yig'ilishini chaqirishni talab qilishi mumkin.
3. Tomonlar ushbu Bitimni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni diplomatik kanallar orqali hal qiladilar.

18-modda

Ijro bayonnomasi

1. Tomonlar Bitimning Ijro bayonnomasini tuzishlari mumkin.
2. Ijro bayonnomamasi ushbu Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi.
3. 1-6-ilovalar ushbu Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi.

19-modda

O'zgartirishlar

Mazkur Bitimga Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra, uning ajralmas qismi hisoblanadigan hamda mazkur Bitimning 20-moddasi 1-bandi talablariga muvofiq kuchga kiruvchi alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

VII-BO'LIM

Yakuniy qoidalar

20-modda

Kuchga kirish, muddat va tugatish

1. Mazkur Bitim Tomonlar tarafidan uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan ichki protseduralar ular tomonidan bajarganligi haqida oxirgi yozma xabarnoma diplomatik kanallar orqali olingan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kundan so'ng kuchga kiradi.
2. Mazkur Bitim nomuayyan muddatga tuziladi. Mazkur Bitimning amal qilishi Tomonlardan biri boshqa Tomonning Bitim amal qilishini tugatish niyati to'g'risidagi tegishli yozma xabarnomasini diplomatik kanallar orqali olgan sanadan boshlab 60 (oltmish) kundan so'ng tugatiladi.

3. Mazkur Bitim Estoniya Respublikasi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 102-moddasiga binoan, kuchga kirgandan keyin darhol Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

4. Boshqa Tomon Birlashgan Millatlar Tashkilotida ro'yxatdan o'tkazilgan raqam to'g'risida, bu raqam Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyati tomonidan tasdiqlangan vaqtda, xabardor qilinadi.

Lyuksemburg shahrida 2023-yil " 23 " oktabrda ikki asl nusxada, har biri o'zbek, eston va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.

Mazkur Bitim qoidalarini talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi
Hukumati nomidan

Estoniya Respublikasi
Hukumati nomidan

**FUQAROLIKNI TASDIQLOVCHI DALIL
BO‘LA OLADIGAN HUJJATLAR RO‘YXATI**
(Bitimning 2-moddasi 1-bandi)

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun:

- biometrik diplomatik pasport;
- fuqaroning biometrik pasporti (shuningdek, xorijga chiqish uchun);
- fuqaroning ID-kartasi;
- fuqaroning nobiometrik turdagi pasporti;
- tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (bola haqida ma’lumotlar agar ota-onasidan birining nobiometrik pasportiga kiritilgan holda xorijga chiqqan bo‘lsa);
- vatanga qaytish sertifikat.

Estoniya Respublikasi fuqarolari uchun:

- Estoniya fuqarolik pasporti;
- diplomatik pasport;
- ID-karta;
- dengizchining bo‘shatish kitobi
- qaytish uchun guvohnoma;
- tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma

**FUQAROLIKNI TASDIQLOVCHI *PRIMA FACIE* DALIL
BO'LA OLADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI**

(Bitimning 2-moddasi 1-bandi)

So'ralayotgan Davlat - O'zbekiston yoki Estoniya bo'lganda:

- 1-ilovada keltirilgan, amal qilish muddati 6 oydan oshgan hujjatlar;

- 1-ilovada keltirilgan har qanday hujjatning nusxalari,
- haydovchilik guvohnomalari yoki ularning nusxalari,
- tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari yoki ularning nusxalari,
- shaxsiy ID guvohnomalar yoki ularning nusxalari,
- guvohlarning ko'rsatmalari,
- tegishli shaxsning bayonotlari va u gapiradigan til, shu jumladan rasmiy test natijalari orqali;

- tegishli shaxsning fuqaroligini aniqlashga yordam beradigan har qanday boshqa hujjat;

- xizmat daftarlari va harbiy guvohnomalar,
- dengizchilarni ro'yxatga olish daftarlari va shkiperni xizmat kartalari,

- so'ralayotgan davlat tomonidan berilgan *laissez-passer*;
- IT tizimlarida o'tkazilgan qidiruv natijasida shaxsni tasdiqlash.

**UCHINCHI DAVLATLAR FUQAROLARI VA FUQAROLIGI
BO'LMAGAN SHAXSLARNI READMISSIYASI UCHUN DALIL
BO'LA OLADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI**

(Bitimning 3-moddasi 1-bandi)

- so'ralayotgan Davlat tomonidan berilgan viza va/yoki yashash ruxsatnomasi,
- kirish/chiqish muhrlari yoki tegishli shaxsning yo'l hujjatidagi shunga o'xshash tasdiq yoki kirish/chiqishning boshqa dalillari (masalan, fotografik).

**UCHINCHI DAVLATLAR FUQAROLARI VA FUQAROLIGI
BO'LMAGAN SHAXSLARNI READMISSIYASI UCHUN
PRIMA FACIE DALIL BO'LA OLADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI**
(Bitimning 3-moddasi 1-bandi)

- So'ralayotgan Davlatning tegishli organlari tomonidan berilgan tegishli shaxsning ushbu Davlat hududiga kirganidan keyin ushlangan joyi va holati tavsifi;
- Xalqaro organlar yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan shaxsning shaxsiyati va / yoki bo'lish joyiga oid ma'lumotlar;
- Oila a'zolari, sayohat sheriklari va hokazolarning ma'lumotlari hisobotlari / tasdig'i;
- tegishli shaxsning bayonoti;
- Kirish/chiqish muhrlari yoki tegishli shaxsning yo'l hujjatidagi o'xshash ko'rsatmalar yoki kirish/chiqishning boshqa belgilari (masalan, foto-video yozuvlar);
- tegishli shaxsning so'ralayotgan Davlat hududida bo'lganligini aniq ko'rsatadigan hujjatlar, guvohnomalar va har qanday turdagi hisob-kitoblar (masalan, mehmonxonalar uchun to'lovlar, shifokorlar/stomatologlar uchun uchrashuv kartalari, davlat/xususiy muassasalarga kirish kartalari, avtotransportlarni ijaraga berish shartnomalari, kredit kartalar kvitansiyalari va boshqalar);
- so'ralayotgan Davlat hududida tegishli shaxsning bo'lishi va yo'nalishini ko'rsatadigan havo yo'llari, poyezd, avtobus yoki kema qatnovlarining ko'rsatilgan chiptalari va / yoki yo'lovchilar ro'yxati;
- tegishli shaxs kuryer yoki sayyohlik agentliklari xizmatlaridan foydalanganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar;
- tegishli shaxsning davlat chegarasini kesib o'tganligi to'g'risida guvohlik berishi mumkin bo'lgan chegara xizmati xodimlari va boshqa guvohlarning rasmiy bayonotlari;
- sud yoki ma'muriy sud ishlarida tegishli shaxsning rasmiy bayonotlari.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI BILAN
ESTONIYA RESPUBLIKASI HUKUMATI O'RTASIDA
RUXSATSIZ YASHAYOTGAN SHAXSLARNI READMISSIYA
QILISH TO'G'RI SIDAGI BITIMNING 5-MODDASIGA
MUVOFIQ READMISSIYA TO'G'RI SIDAGI ARIZA**

_____ (joy va sana)

[Davlat belgisi]

_____ (So'rayotgan Davlat markaziy vakolatli organining nomi)

Raqam

☐ Suhbat uchun so'rov

_____ ga
(So'ralayotgan Davlat markaziy vakolatli organining nomi)

A. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

1. To'liq I.Sh.F. (Familiya tagiga chizilsin):

.....

2. Qizlik I.Sh.F. (agar mavjud bo'lsa):

.....

3. Tug'ilgan joyi va sanasi:

.....

Rasm

4. Jinsi va jismoniy tavsifi (bo'yi, ko'z rangi, farqlash belgilari va boshqalar):

.....

5. Bundan tashqari, (avvalgi ismlar, ishlatilgan/ma'lum bo'lgan boshqa nomlar yoki taxalluslar):

.....

6. Fuqarolik va til:.....

7. Fuqarolik holati (imkon bo'lsa)

☐ uylangan/turmushga chiqqan ☐ bo'ydoq/turmushga chiqmagan
☐ ajrashgan ☐ beva

Agar uylangan/turmushga chiqqan bo'lsa, turmush o'rtog'i

I.SH.F:.....
Farzandlar ismlari va yoshlari (agar mavjud bo'lsa).....

8. So'rayotgan Davlatdagi oxirgi manzili:

9. So'ralayotgan Davlatdagi oxirgi yashash joyi:

10. Ota-onalar I.Sh.F. (imkon bo'lsa):

B. TOPSHIRILAYOTGAN SHXAGA OID MAXSUS HOLATLAR

1. Sog'lik holati

(Masalan, maxsus tibbiy yordamga mumkin bo'lgan murojaat;
Yuqumli kasalliklarning lotincha nomi):

2. O'ta xavfli shaxsni ko'rsatish (Masalan, jiddiy huquqbuzarlikda
gumon qilingan; tajovuzkor xatti-harakat):

C. ILOVA QILINADIGAN DALIL VOSITALARI

1.....	
(Pasport raqami)	(berilgan joyi va sanasi)
.....	
(bergan vakolatli organ)	(amal qilish muddati)
2.....	
(ID karta raqami)	(berilgan joyi va sanasi)
.....	
(bergan vakolatli organ)	(amal qilish muddati)
3.....	
(Haydovchilik guvohnomasi raqami)	(berilgan joyi va sanasi)
.....	
(bergan vakolatli organ)	(amal qilish muddati)
4.....	
(Boshqa rasmiy hujjat raqami)	(berilgan joyi va sanasi)
.....	
(bergan vakolatli organ)	(amal qilish muddati)

D. KUZATUVLAR

.....
.....
.....

Readmissiya uchun sabablar (mazkur Bitim moddasiga havola qilgan holda)

.....

(So‘rayotgan Davlat vakolatli organi vakilining imzosi)
(muhr/shtamp)

**TOPSHIRISH / TRANZITNI RASMIYLASHTIRISH UCHUN
SO'ROV**

(joy va sana)

[Davlat belgisi]

(So'rayotgan Davlat markaziy vakolatli organining nomi)

Raqam

○ Suhbat uchun so'rov

ga
(So'ralayotgan Davlat markaziy vakolatli organining nomi)

A. Shaxsiy ma'lumotlar

1. Ismlar va Familiyalar (familya katta harflarda, shuningdek davlat tilida):.....

2. Qizlik I.Sh.F.:
.....

4. Fuqarolik va til:

5. Jinsi va jismoniy tavsifi (bo'yi, ko'z rangi, farqlash belgilari va boshqalar):
.....

6. Bundan tashqari, (avvalgi ismlar, ishlatilgan/ma'lum bo'lgan boshqa nomlar yoki taxalluslar):
.....

7. Yo'l hujjati raqami va turi:
.....

B. TOPSHIRILAYOTGAN SHXAGA OID MAXSUS HOLATLAR

1. Sog'lik holati

(Masalan, maxsus tibbiy yordamga mumkin bo'lgan murojaat; Yuqumli kasalliklarning lotincha nomi):
.....

Rasmi

2. O'ta xavfli shaxsni ko'rsatish
(Masalan, jiddiy huquqbuzarlikda gumon qilingan; tajovuzkor xatti-
harakat):.....

C. TOPSHIRISH/TRANZIT FAOLIYATI MA'LUMOTLARI

1. Turi
☐ Havo orqali ☐ Quruqlik orqali
2. Oxirgi manzil davlati
.....
3. Ehtimoliy transit davlatlari
.....
4. Chegaradan kesib o'tishning tavsiya etilgan nuqtasi, sana,
topshirish vaqti va mumkin bo'lgan kuzatuv:
.....
5. Qabul qilish har qanday boshqa tranzit davlatda va oxirgi manzil
davlatida kafolatlangan
☐ ha ☐ yo'q
6. Tranzitni rad etishning har qanday sababi haqida ma'lumot (agar
mavjud bo'lsa, aniq ko'rsating)
☐ ha ☐ yo'q

D. KUZATUVLAR

.....
.....
.....
.....

(So'rayotgan Davlat vakolatli organi vakilining imzosi) (muhr/shtamp)